

OLIIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARINING O'QUV VA HAYOTIY FAOLIYATI UCHUN AXBOROTLARNI MUSTAQIL IZLAB TOPISHI PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Turobova Ziyoda Shuhrat qizi

Magistr

ziyodaturbova7@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasasi (keying o'rinlarda OTM deb yuritiladi) talabalarining o'quv va hayotiy faoliyati uchun axborotlarni mustaqil izlab topishda duch kelayotgan muammolari va bu muammolarni hal qilishga doir yechimlar haqida so'z boradi. Tadqiqot doirasida OTM talabalarida axborot savodxonligiga doir bilimlarning yetarli emasligi, ta'limga oid zamonaviy qidiruv tizimlari haqida ma'lumot yo'qligi aniqlandi. Bundan tashqari bir qancha qidiruv tizimlardagi ma'lumotlar ingliz tilida ekanligi ma'lum. Bu ma'lumotlardan foydalanishda talabalarimizning aksariyat qismi ingliz tilini bilmasliklari axborotlarni mustaqil izlab topishda yana bir asosiy muammolardan biri bo'lmoqda. Tadqiqotimiz Navoiy davlat universitetining uch fakulteti uchta guruhida ya'ni, "O'zbek tili va adabiyoti" fakultetining 203- guruhi, "Maktabgacha ta'lim" fakultetining 3-"G", va "Matematika va informatika" fakultetining 4-"A"da o'tkazilgan. Yakuniy natijalarda OTM talabalariga Twitter (twitter.com), Yahoo! (yahoo.com), Vikipediya (wikipedia.org). kabi qidiruv tizimlari, [Reddit](https://reddit.com), [Gutenberg.org](https://gutenberg.org), Information Literacy internet saytlar haqida ma'lumot, foydalanish bo'yicha tavsiyalar berilib, ularning axborotlarni mustaqil izlab topishlarida istiqbolli yo'nalish ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lim muassasasi, talaba, axborot, o'quv faoliyat, qidiruv tizimlari, axborot savodxonligi, internet saytlar, mustaqil ta'lim

САМОСТОЯТЕЛЬНЫЙ ПОИСК ИНФОРМАЦИИ ДЛЯ СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация: В данной статье рассматриваются проблемы, с которыми сталкиваются студенты высших учебных заведений (далее именуемые вузами) при самостоятельном поиске информации для своей образовательной и жизнедеятельности, и пути их решения. Исследование выявило, что у студентов вузов недостаточный уровень информационной грамотности и недостаточные знания о современных поисковых системах, связанных с образованием. Кроме того, известно, что информация в ряде поисковых систем представлена на английском языке. Тот факт, что большинство наших студентов не владеют английским языком при использовании этой информации, является еще одной серьезной проблемой при самостоятельном поиске информации. Наше исследование проводилось в трех группах трех факультетов Навоийского государственного университета, а именно: группа 203 факультета «Узбекский язык и литература», 3-«Г» факультета «Дошкольное образование» и 4-«А» факультета «Математика и информатика». Итоговые

результаты показали, что студентам вузов был предоставлен доступ к Twitter (twitter.com), Yahoo! (yahoo.com), Wikipedia (wikipedia.org), поисковые системы, Reddit, Gutenberg.org, сайты информационной грамотности и даны рекомендации по их использованию, показывающие, что они являются перспективным направлением для самостоятельного поиска информации.

Ключевые слова: Высшее учебное заведение, студент, информация, образовательная деятельность, поисковые системы, информационная грамотность, веб-сайты, самостоятельное обучение.

INDEPENDENT SEARCH FOR INFORMATION FOR STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

Abstract: This article discusses the problems faced by students of higher education institutions (hereinafter referred to as HEIs) in independently searching for information for their educational and life activities and the solutions to these problems. The study revealed that HEI students lack sufficient knowledge of information literacy and lack of knowledge about modern search engines related to education. In addition, it is known that the information in several search engines is in English. The fact that most of our students do not know English when using this information is another major problem in independently searching for information. Our study was conducted in three groups of three faculties of Navoi State University, namely, group 203 of the faculty of "Uzbek language and literature", 3-"G" of the faculty of "Preschool education", and 4-"A" of the faculty of "Mathematics and Informatics". The final results showed that HEI students were given access to Twitter (twitter.com), Yahoo! (yahoo.com), Wikipedia (wikipedia.org), search engines, Reddit, Gutenberg.org, Information Literacy websites, and recommendations for their use are provided, showing that they are a promising direction for independent information search.

Keywords: Higher education institution, student, information, educational activities, search engines, information literacy, websites, independent learning

KIRISH

Barchamizga ma'lumki, axborot – ijtimoiy, iqtisodiy, tabiiy fanlarning, tafakkur ilmining taraqqiyoti natijasida yuzaga kelgan bilim va ma'lumotlar, kishilarning amaliy faoliyati davomida to'plagan tajribalari yig'indisi demakdir. Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning o'quv faoliyatini samarali tashkil etishda turli axborotlardan foydalaniladi. Shu o'rinda shuni aytishimiz mumkinki, turli axborotlar ichidan kerakli o'quv faoliyatiga mos turini tanlab o'zlashtirish talabadan yuqori malaka talab qiladi. Hozirgi kunda axborotlar okeanidan kerakli ma'lumotlar izlash nihoyatda murakkablashib bormoqda. Unga oid maxsus bilish yo'nalishiga ega talabagina turli axborotlardan o'quv faoliyatiga

keraklisini aniqlab o'zlashtira oladi. Axborot qayerdan, kim tomonidan va nima maqsadlarda tarqatilayapti, kimning manfaatlarini o'zida aks ettirayapti, degan savollarga javob topa olish uchun muhimdir. Shu kabi axborotlarni erkin olish, ulardan foydalanish, axborot tizimlari va shu qator axborotga oid ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 4-sentabrdagi O'RQ-373-sonli "Axborotlashtirish to'g'risidagi" Qonunida keltirib o'tilgan. Axborot tufayli nazariya amaliyot bilan birikadi. Shu sababli OTM talabalarining o'quv va hayotiy faoliyat uchun axborotlarni mustaqil izlab topishdagi pedagogik muammolarini o'rganish, axborotlarni mustaqil izlab topishda duch keladigan muammolarini tahlil qilish va axborotning zarurati, undan foydalanishning mazmun-mohiyatini o'rganish ushbu tadqiqotimizning asosiy maqsad va vazifalari hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 824- son qarorining birinchi ilovasi kredit-modul tizimiga bag'ishlanadi va hozirda OTM larda o'quv faoliyatlar kredit modul tizimi asosida amalga oshirilmoqda. Kredit modul tamoyilida ikki asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash; talabalar bilimini reyting asosida baholash. Shu sababli ham tadqiqotimizda dastlab mustaqil ta'limga oid olib borilgan ilmiy ishlarni o'rganib chiqdik.

Mustaqil ta'lim barcha o'quv ishlarning yakunlovchi shaklidir. Mustaqil ta'lim jarayonida u yoki bu fan sohasiga doir axborotlarni to'plash, o'zlashtirish, tahlil qilish, umumlashtirish, ularni mustahkam bilimga barqaror malaka va ko'nikmalarga aylantirish kabi vazifalar amalga oshirilishi, mustaqil ta'lim olish texnologiyalari haqida ko'plab ma'lumotlar berilgan. (M.Ochilov, N.Ochilova. Oliy maktab pedagogikasi. Darslik.-T., "Aloqachi", 2008, 87-bet)

Aytenov Bekjigit Tursunmuratovich "Talabalarda mustaqil ta'lim olish faoliyatini takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslari",

Muqimov B.R "Talabalarni mustaqil ish jarayonida interfaol ta'lim metodlari asosida didaktik kompetensiyasini takomillashtirish (kasb ta'lim yo'nalishlari misolida)"

Sarimsakova D.M OTMlarda kredit modul tizimi sharoitida “mustaqil ta'lim ko'nikmalari” fanining mazmuni va mohiyati “Problems and perspectives of modern technology in teaching foreign languages” 601-bet

Mirzayeva Z.Sh “O'quvchilarda mustaqil ta'limini tashkil etish yo'llari”

Axborot bilan ishlash qobiliyati universal xususiyatga egaligi, turli xil kognitiv va hayotiy vazifalarni hal qilish imkonini berishi haqida (Yu.K.Babanskiy), I.Ya.Lerner, A.V.Usova, T.I.Shamova, N.A.Loshkareva, S.G. Vorovshchikov, D.V.Tatyanchenko, A.N.Tubelskiy, L.M.Perminova va boshqalar) tomonidan taklif qilingan tegishli tasniflarda o'z aksini topgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, OTM talabalarining mustaqil ta'lim olishi bo'yicha ko'plab ijobiy ma'lumotlar bo'lsada, o'quv va hayotiy faoliyat uchun axborotlarni mustaqil izlab topish pedagogik muammo sifatida qaralib to'liq o'rganilmaganligi aniqlandi. Shu sababli tadqiqotning asosiy bosqichlarida kuzatuv, intervyular, so'rovnomalar orqali talabalarning bilim darajasi, axborotlarni mustaqil izlashga doir ko'nikmalari, qiziqish va motivatsiya darajasi aniqlandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Axborot jamiyatining paydo bo'lishi ta'limning o'zgarishiga olib keladi. Ta'lim talabga aylanib bormoqda, bu esa insonga axborot olamiga ishonch bilan kirish, uni izlash, tahlil qilish va talqin qilish imkonini beradi. Shu sababli ham oliy ta'lim muassasasi talabalari bilan biz so'rovnoma o'tkazishda, o'quv va hayotiy faoliyatlari uchun axborotlarni mustaqil izlab topish, qidiruv tizimlari, turli xil ta'limga oid saytlar, ulardan qanday foydalanish kerakligi to'g'risida to'xtaldik. Biz tadqiqotimizni Navoiy davlat universitetining uch fakultetini uchta guruhidan ya'ni, “O'zbek tili va adabiyoti” fakultetining 203- guruhi, “Maktabgacha ta'lim ” fakultetining 3-“G”, va “Matematika va informtika” fakultetining 4-“A” dan so'rovnomalar oldik. (1.1-jadval)

1.1-jadval

	Tahlil uchun berilgan savollar.	Natijalar
--	---------------------------------	-----------

1.	Axborot bu -?	inson sezgi a'zolari orqali qabul qiladigan ma'lumotlar- 43% ma'lumotlar to'plami- 15% voqea va hodisalar haqida ma'lumot- 21% aniq ma'lumotga ega emasman- 21%
2.	Axborotlarni mustaqil izlashda kutubxonadan foydalanasizmi yoki internet saytlardan?	Internet saytlardan- 78,5% Kutubxonadan- 21,5%
3.	Hozirgi kunda OTM talabalarining axborotlarni mustaqil izlab topishi qay darajada? Foiz ko'rsatkichida ko'rsating	50%- 21%, 60%- 15% 70%- 43% 80%-21%
4.	Internet saytlar orqali axborot qidirish malakasini bilasizmi?	Ha-28,5% Yo'q-43% Qisman bilaman-28,5%
5.	Sayt turlari haqida bilasizmi?	Ha- 35,7% Yo'q -64,3%
6.	Ta'lim ga oid saytlar haqida ma'lumotiz bormi?	Ha – 14% Yo'q- 57% Qisman bilaman – 29%
7.	Hotcourses.ru sayti haqida bilasizmi?	Ha – 7% Yo'q- 78,5% Qisman bilaman – 14,5%
8.	Ipl2 sayti haqida ma'lumotga egamisiz?	Ha – 7% Yo'q- 86% Qisman bilaman – 7%

9.	TED Talks bu qanaqa saytligini bilasizmi?	Ha – 7% Yo‘q- 86% Qisman bilaman – 7%
10.	Twitter.com haqida ma’lumotiz bormi ?	Ha – 14,% Yo‘q- 86%

Dastlabki natijalari va keyingi o‘tkazilgan faoliyatlardan so‘ng olingan natijalar o‘rtasida o‘zgarishlar yuzaga kelganligi aniqlandi. Shuningdek guruhlardan olingan anketa, so‘rovnomalar natijalari umumlashtirilib, ma’lum bir reja asosida talabalarga o‘quv va hayotiy faoliyatlari uchun axborotlari mustaqil izlab topishga o‘rgatish yuqori samara berishi belgilandi. (1.2-jadval)

1.2-jadval

Guruhlar	203 guruh	3 “G” guruh	4 “A” guruh	Umumiy
Tajriba boshida	24 (45%)	23 (42%)	23 (40%)	70 (42,3%)
Tajriba oxirida	24 (80%)	23 (82%)	23 (78%)	70 (80%)

Ushbu jadvaldan ko‘rib turganingizdek, tajriba boshida guruhdagi natijalar 42,3% ni tashkil etgan. Tajriba sinov ishlari o‘tkazilgandan keyingi natijalar 80% ni tashkil etgan. Tajriba oxirida olingan natijalar tajriba boshidagi natijalarga qaraganda yuqori ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

XULOSA

O‘quv va hayotiy faoliyat uchun axborotlarni mustaqil izlab topish haqida davra suhbatlarini tashkillashtirdik. Bu orqali biz talabalarimizning tadqiqot mavzuimiz bo‘yicha qanday bilim darajasiga ega ekanliklarini anqladik. Shundan so‘ng talabalarimiz uchun axborotlarni mustaqil izlab topishlari uchun bir qancha qidiruv tizimlari, ta’limga oid hattoki yo‘nalishlarga oid saytlarni, ulardan qanday ma’lumotlar olishlari haqida ko‘plab ma’lumotlar berdik. Oliy ta’lim muassasasi talabalarining o‘quv va hayotiy faoliyati uchun axborotlarni mustaqil izlab topishga o‘rgatish metodikasi bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari biz nazarda tutgan muammoni yechishga yordam berdi. Tajriba-sinov jarayonida biz taqdim etgan test, so‘rovnoma, trening, tanlovlar natijasiga ko‘ra talabalar bilan axborotlarni mustaqil

izlab topishga o'rgatish ma'lum bir reja asosida mazmunli tarzda olib borilsa maqsadga muvofiqdir.

Oliy ta'lim muassasasi talabalarining o'quv va hayotiy faoliyati uchun axborotlarni mustaqil izlab topishga o'rgatish tajriba-sinov ishlari davomida o'z isbotini topdi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. qidiruv tizimlari: Twitter (twitter.com), Yahoo! (yahoo.com), Vikipediya (wikipedia.org). kabilar haqida ma'lumot berish;
2. ikkinchi va uchinchi bosqich talabalariga o'quv faoliyatlari uchun ma'lumotlarni mustaqil izlashda *EdX*, *Quizlet*, *Layfxaker*, *Quora*, *Mental Floss*, *Reddit*, *Gutenberg.org*, *Information Literacy* kabi ko'plab turli yangi saytlarni tanishtirish;
3. axborotlarni mustaqil izlab topish bo'yicha talabalarga seminar-treninglarni muntazam tashki etib borish.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun Toshkent sh; 2020
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 824- son qarori;
3. Respublikasining 2014-yil 4-sentabrdagi O'RQ-373-sonli "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonuni
4. M.Ochilov, N.Ochilova.Oliy maktab pedagogikasi. Darslik.-T., "Aloqachi", 2008, – 87 bet
5. Xodjayev B.X. O'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish yo'llari. – T.: TDPU, 2008. – 65-
6. Baybayeva M.X. Mustaqil ta'lim olish texnologiyasi va kasbga yo'nalganlik // Kasb-hunar ta'limi. – Toshkent, 2005
7. <https://polarize.ru/uz/>